

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING ESTETIK  
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI**

**Tojiboyev Jahongir Umidjon o'g'li**  
*FarDU Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi*

**Kalit so'zlar:** *Estetik madaniyat, estetik munosabat, faoliyat obyekti, faolyat subyekti, estetik faoliyat.*

Estetik madaniyat insonning ma'naviy-xissiy faoliyati bilan uzviy bog'langan munosabat va qadriyatlar tizimini ifodalaydi.

Estetik madaniyat sohasi insonning vokelikka munosabatida uning o'z-o'zini erkin namoyon etishi bilan bog'langandir. Bu erkinlikning mohiyati shundaki, inson tabiat narsalarini kayta ishslashda uning o'z jinsi va turiga mos me'yorni topa oladi va gavdalantiradi.

Estetik madaniyat jamiyat madaniyatining ixtisoslashtirilgan qismi bo'lib, uning xolatini san'at va estetik munosabatlar rivojlanishi bilan boglab tushuntirish mumkin.

"Estetik madaniyat" tushunchasiga har xil tavsiflar beriladi, qolaversa shaxsning estetik madaniyatini o'rganish falsafa, sotsiologiya, estetika, pedagogikada turlicha yondashuvlarni talab etadi. Shaxs estetik madaniyatini tadkik etish "shaxs" tushunchasini o'rganishni, turli xil qarashlardagi ta'riflardan bizning tadkikotimizga yakin bo'lganlarini belgilab olishni talab etadi.

"Estetik madaniyat" tushunchasi xar xil variantlarda talqin etiladi: "ijtimoiy", "operatsion" vosita (O.Larmin); badiiy madaniyatning o'ziga xos kurinishi (L.Kagan, I. Matsa); "mayjud ob'ektiv qadriyatlarni inson tomonidan o'zlashtirilishi va uning shunday qadriyatlarni yaratishga karatilgan faoliyat me'yorlari" (U.Suna); bu - shaxsning individual-estetik madaniyatida o'zaro boglik bo'lgan ijodiy-yaratuvchilik, ma'naviy-mushoxada yuritish va ilmiy-nazariy jihatlari (M.Piradov); ongi, xis-tuygulari, qobiliyatları bir-biriga o'zaro ta'sir etuvchi individuning murakkab integrativ maxsuli. Shaxsga estetikni to'laqonli idrok etish, baholay olish va yarata olish imkonini beruvchi o'ziga xos sifatlar majmuidir (M.Verb).

Estetik munosabat va unga muvofiq keladigan estetik qadriyatlar tizimi estetik madaniyatning barkaror jihatlari hisoblanadi. Estetik madaniyatning xususiyatlari esa uning negizini tashkil etuvchi faoliyatning o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, faoliyat deyliganda insonning olamga nisbatan predmetlar bilan bog'langan munosabati tushuniladi. Faoliyat tufayli inson tabiatni takror xosil qiladi, uzgartiradi, binobarin, faoliyat asosida insonning ijodkorlik qobiliyati yotadi. Faoliyat inson mayjudligining ijtimoiy usuli buzlib, ma'naviy-moddiy, intellektual jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Faoliyat qo'l xarakatiga o'xshash fikrlar yo'nalishini ham, inson xulqi qoidalariga o'xshab ketadigan bilish jarayonini ham ifoda etadi.

Faoliyat amal qilmogi uchun quyidagi uch jihat zarur:  
 -faoliyat sub'ekti;  
 -faoliyat ob'ekti;  
 -faoliyat jarayoni.

Faoliyatning sub'ekti ob'ekt yoki boshqa sub'ektlarga yo'naltirilgan faol jihatlar majmuidir. SHu ma'noda muayyan shaxs, u yoki bu ijtimoiy guruh va nixoyat, jamiyatning o'zi ham faoliyat sub'ekti bo'lishi mumkin.

Estetik faoliyatning sub'ekti estetik qobiliyat, ijodiy erkin mushoxada va obrazli fikrlash layokatiga ega, muammoli xolatlarda erkin xatti-xarakat kursata oladigan inson hisoblanadi. Sub'ekt o'zigacha mavjud va tayyor estetik qadriyatlarni «faxmlash» bilan chegaralanmaydi, aksincha, xar safar predmetni u uz tasarrufi va idealiga muvofiq kayta ishlaydi.

Estetik faoliyat jarayonida sub'ektning estetik ehtiyojlari takomiilashib, boyib boradi.

Sub'ektlarning faolligi yunaltirilgan jihatlar yigindisi faoliyat ob'ektini tashkil etadi. Tabiat predmetlari, ijtimoiy xodisalar, insonning o'zi shunday ob'ekt bzla oladi. Bordi-yu sub'ektning xarakati uning o'z-o'ziga qaratilgan bo'lsa (masalan, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi anglash kabi), unda sub'ekt ayni vaktda ob'ekt urnini ham bosishi mumkin. Faoliyat jarayoni, borlikning asosiy qonuniyatları (yaxlitlik, mutanosiblik, uygunlik, me'yoriylik va boshqalar) ularning taski ifodaları (yorqinlik, ifodaviylik va boshqalar), ijtimoiy taraqqiyot qonunları (ijtimoiy ravnaq, erkinlik, insonparvarlik va boshqalar) estetik faoliyatning asosini tashkii etadi. Tabiiyki, bu xossalalar tashkarida yotmaydi, aksincha, ularni aniklamoq uchun maxsus faoliyat kursatish kerak. Estetik faoliyat ob'ekti ana shunday vazifani bajaradi.

Faoliyat sub'ekt tomonidan ob'ektni uzlashtirish darajasini ifodalaydigan kursatkichdir. Demak, faoliyat sub'ektning ob'ektga munosabati tarzida yuzaga keladi. Sub'ektning maqsadiga ko'ra faoliyatning bir necha turlari, masalan, kayta uzgartiruvchanlik, bilish va boshqalar mavjud buzladi. Faoliyat jarayonida kullanilayotgan vositalarga qarab, u moddiyamaliiy, ma'naviy-amaliy turlarga bulinadi. Shuningdek, faoliyat ishlab chiqarish va iste'molchilik tarzida ham amalga oshiriladi.

Faoliyatning asosiy vazifasi insoniyat jamiyatni mavjudligini ta'minlash va uning tadrijiy rivojlanishiga xizmat qilishdan iboratdir. Boshqacha aytganda, jamiyat mavjudligi va yashab turishi inson turmushining zaruriy shartidir. Binobarin, inson faoliyati yashash uchun real muxitni - «ikkilamchi tabiat»ni yaratish va mukammallashtirishga karatiladi. Bordi- yu xayvonning xatti-xarakati asosan uning uz jismoniy mavjudligi (organizmi)ni muxitga moslashtirsa, inson faoliyati tabiatni, tevarak- atrofni uz maqsadlariga muvofiq ravishda uzgartiradi va kayta yaratadi.

Estetik faoliyat ham mohiyatan ana shunday xususiyatlarga ega bo'lsa-da, muayyan tomonlari bilan ulardan ajralib turadi. Ishchi yoki olimning mehnati estetik xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Biroq bu erda estetik maqsad asosiy narsa emas. Shuningdek, inson faoliyati va xulkining juda ko'p xodisalarida estetik maqsad amaliy niyatlarni yuzaga chiqarishda yordamchi vosita rolini bajarishi mumkin. Injener faoliyatidagi asosiy niyat - loyihaning mukammal va pishik buzilishi, olimnikida - nazariya mukammalligini ta'minlaydigan izchillik, ishchinikida - mehnat mahsuloti sifatini oshirishdagagi estetik faoliyat natijasi hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev SH.M. We will restore the free and prosperous, democratic state of Uzbekistan together." Uzbekistan " 2016 2. Xalilov R. Hammer the role of pencil sharpener in directing teachers of Fine Arts to the profession. 2021
2. SAIDKULOVICH, S. B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students' Aesthetic Culture in the Process of Globalization. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 8(1), 75-77.
3. Siddikov, B. S. "THE IMPORTANCE OF SPORTS AND RECREATION ACTIVITIES FOR A HARMONIOUSLY DEVELOPED GENERATION." Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020. 5.
4. Tuychieva, Inoyatkhon I. "Mechanisms Ensuring Children's Thought Activity Development at Preschool Education Process." Eastern European Scientific Journal 6 (2018). 7.
5. Jalalov, Bakhromjon Bekmurzaevich, H. A. Khatamov, and F. U. Nasidenova. "Advantages of collective learning." Scientist of the XXI century (2016)
6. Jahongir Umidjon O'G'Lij Tojiboyev (2022). TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTSHAROITLARI. Academic research in educational sciences, 3 (1), 585-594. doi:10.24412/2181-1385-2022-1-585-594
7. SAIDKULOVICH, S.B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students' Aesthetic Culture in the Process of Globalization. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 8(1), 75-77.
8. Umidjon o'g'li, T. J. (2022, November). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARING ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 42-44).